



KASB HUNAR MAKTABIDA ONA TILI FANINI O'QITISH SAMADORLIGI

Sattarova Anorxol Xursandovna

Zomin tumani 2-son Kasb-hunar maktabi

ona tili o'qituvchisi

Annotatsiya. XX asr oxiri XXI asr rivojlanish nuqtasiga chiqqan substansial tilshunoslik (til va nutqni farqlab o'rganuvchi mohiyat tilshunosligi) va ona tilining kognitiv-pragmatik (ijodiy izlanishga mo'ljallangan amaliy) ta'lumi-bir-biridan ajralmas tushunchalardir.

Kalit So'zlar: ona tili fani, fanning maqsadi, tafakkur vositasi, milliy til, milliy ong

Bugungi kunda, ona tili fanini o'qitishda, xususan, kasb-hunar maktab darsliklarida ta'rif-qoidalardan chekinish ko'proq tilning amaliy tomoniga e'tibor berish kerak. Ta'lim to'g'risidagi qonun ijodiy tafakkur ko'nikmalariga ega bo'lgan barkamol shaxsni tarbiyalashni oldimizga asosiy vazifa qilib qo'yadi. Ta'limni tayyor qoidalari orqali mashqni bajartirib emas, o'quvchilarni o'ylantiradigan mustaqil fikrlashga majbur qiladigan, izlash, ijod qilishga yo'l ochadigan uslubda olib borish lozim. Xo'sh, bunga qanday erishiladi? Buning uchun, avvalo, o'quvchilarning so'z boyligini oshirish kerak. O'zbek tili izohli lug'atida 80000 so'z bor, balki tilimizdagi so'zlar bundan ham ko'pdir. Lekin biz jamiyatda qancha so'z ishlatalimiz? "-Mening tilimning chegarasi mening dunyomning chegarasidir", degan gap qanchalik haqli. So'z boyligini oshirishga alohida e'tibor qaratib, darsliklarda shunga urg'u bersak, yaxshi bo'lardi. Shuningdek, gaplar o'rtasidagi ma'no noziklariga ko'proq e'tiborni qaratish kerak.

Darslikdagi mavzular qiyoslash, taqqoslash assosida olib boorish kerak. Shuningdek, darslikdagi qoidalarni umumiy hukm deb qaramaslik lozim.

Inkor etib bo'lmaydigan bir haqiqat bor: Davlat tili maqomiga ega bo'lgan onadek mo'tabar tilimiz-nihoyatda boy til. Uning ta'limi jarayonida butun e'tiborimizni o'quvchida ijodiy tafakkurni shakllantirish va tarbiyalash masalasiga qaratishimiz zarur. Buning uchun ona tili darslarida o'quvchilar o'qituvchi rahbarligi va hamkorligida quyidagilarni bajara olishi muhim:

-muntazam (o'quvchi uchun) yangi bo'lgan so'zlar ustida ishslash va ta'lim oluvchining lug'at zahirasini boyitib borish;

-o'quvchida so'zlarning ma'no nozikliklari, farq va o'xshashliklarini his qilish hamda to'g'ri anglab yetish ko'nikmasini mustahkamlash;

-o'quvchilarni aniq talaffuz qilishga va xatosiz yozishga o'rgatish:

- o'quvchilarni so'zlarni bog'lab gap, gaplardan esa matnlar tuza olish, birikmalardagi ma'noviy va grammatic, matnlardagi mantiqiy xatoliklarni topish va tuzatishga odatlantirish;



-bir fikrni turli vositalar bilan ifodalash, uzilgan fikrning davomini tiklay olishni uddalashga o'rgatish;

-nutq vaziyatini to'g'ri baholash va til imkoniyatlaridan unga mos ravishda foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish va malakasini o'stirish.

Bu vazifalar ijrosi o'quvchini ham, o'qituvchini ham qoida bozlikdan xalos etish, fanlararo integratsion ta'limga e'tibor qaratishi shart. Zero, lingvistik bilimlar ana shu vazifalarni amalga oshirish vositasi bo'lmog'i, o'quvchining aqliy faoliyati zinhor lingvistik qoidalar va til qurilishiga doir bilimlar bilan band qilibqo'yilmasligi kerak.

O'quvchilarning so'z boyligini oshirish va tasviriy vositalarni qo'llashda usta qilish lozim. So'z ma'nosidan keng foydalansin tilning grammatik qoidalari esa oliv ta'limda o'qitilsa yaxshi bo'larda. Shu maqsadda darsliklarni ham qayta ko'rib chiqish dolzarblik kasb etadi. Ayni vaqta ona tilimizga bo'layotgan e'tibor jamiyatimizda til madaniyatini oshirish borasida hali ko'p ishlar qilishimiz lozimligini ham unutmaslikka chorlaydi. Mustaqil O'zbekistonda o'zbek tilining mavqeい va nufuzini oshirish borasida amalga oshirilayotgan say- harakatlar, shu bilan birga Qonun va Qarorlar mohiyatidan kelib chiqib, ona tilimizning mustahkam huquqiy asosi va yuksak maqomga ega bo'lishi uchun, xalqaro minbarlarda baralla yangrashi uchun barchamiz mas'ul bo'lishimiz lozim. Bugungi kunda yaratilayotgan o'quv darsliklari o'quvchilarni, avvalo, mustaqil fikrlashga, lug'at bilan ishslash, matnni nazariy va amaliy bilimlar asosida tahlil qilishga undaydi. Shunga mos ravishda zamонавиy ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi innovatsion texnologiyalardan foydalanib o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk, yuksak salohiyatlari, barkamol shaxs qilib tarbiyalashi lozim.

Demak, har birimiz davlat tiliga bo'lgan e'tibornimustaqilligimizga bo'lgan e'tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona-Vatanimizga bo'lgan ehtirom va sadoqat deb bilishimizlozim. Bunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantiraylik!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Abdullayev A.B. Til – tafakkur ko'zgusi. Buxoro – 1989.

2.Yo'ldosheva D.N. Ona tili ta'limi maqsadining tadrijiy taraqqiyoti. –

Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2013. – 216 bet.

3.Таълим жараённида ижодий тафаккурни ривожлантириш масалалари. ЎТДА 6-йифини тезислари (Масъул мухаррир: М.Абдураимова). – Т.: PTM, 2001.–248 b.

4.https://uz.wikipedia.org/wiki/O'zbek_tili

5.<https://alifbo.tech.blog>

<http://uza.uz/uz/politics/prezident-shavkat-mirziyoyevning-o-zbek-tiliga-davlat-tili-m-21-10-2019>